



" TASDIQLAYMAN"

Qashqadaryo viloyat hokimligi

yagona buyurtmachi hizmati injiniring

kompaniyasi direktori

A.Normo'minov

2022 yil.

Mirishkor tumani "Vori" QFY "Yangiobod" qishlog'idagi 15-sonli davlat mактабгача та'lim tashkilotini rekonstruksiya qilish (150 o'rинli binosi qurish) obyekti bo'yicha ishchi loyihaning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

Qarshi-2022 yil

NN n/п	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Asosiy ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Obyektning nomi	- Mirishkor tumani "Vori" QFY "Yangiobod" qishlog'idagi 15-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini rekonstruksiya qilish (150,o'rinli binosi qurish)
2	Qurilish joyi	- Mirishkor tumani "Vori" QFY
3	Buyurtmachi	-Qashqadaryo viloyati hokimligi yagona buyurtmachi xizmati injiniring kompaniyasi. Qarshi shaxar O'zbekiston gazeta ko'chasi 3 uy
4	Ishlab chiqish uchun asoslar	- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi PQ-172-sonli qaroriga va Qashqadaryo viloyat kengashining 2022 yil 5 fapreldagi VI-43-4-0-X/22 – sonli qaroriga asosan
5	Qurilish turi	-Rekonstruksiya qilish
6	Moliyalashtirish manbai	-Davlat byudjeti mablag'lari .va boshqa mablag'lar xisobidan.
7	Qurilishning taxminiy bahosi	Loyihaning taxminiy qiymati 3120.0 mln.so'm. loyiha ishlari bajarilgandan so'ng, yakuni ekspert xulosasiga asosan aniqlaniladi
8	Loyihachi tashkilot-bosh loyihachi nomi	Tanlov asosida belgilanadi.
9	Ob'ektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, quvvati, unumдорлиги, ishlab chiqarish dasturi, shuningdek turar-joy binolar, ularning vazifalar (qavatlar soni, sektsiyalar va xonalar soni, qabul qilish va sig'im qobiliyatি)	150 o'rinci, 1 va 2 qavatli maktabgacha ta'lim tashkiloti loyihasini ishlab chiqish (30 kishilik 5 ta guruh to'liq kun uchun)
10	Arxitektura-qurilish, hajmli rejalashtirish va konstruktsiyali qarorlarga, blokirovkalash shartlari, binolarni pardozlash uchun talablar	Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududida quyidagi funksional maydonchalarni joylashtirish zarur: <ul style="list-style-type: none"> - guruqlar; - jismoniy tarbiya maydonchalar; - xo'jalik ishlari maydoni; - tashqi bolalar ayvonchasi; Maktabgacha ta'lim tashkilotini joylashtirish va loyihalashtirish ishlarida quyidagi me'yoriy xujjatlardan foydalanish talab etiladi: "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2021-yilning VMQ-391 va ShNQ 2.07.01.-03* "Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududini rivojlantirish va rivojlantirishni rejalashtirish" hamda SanPIN va IKN 03-19 O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari".

		<p>Binoda asosan quyidagilarni ko'zda tutish lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - kichik guruh (3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan bolalar 30 o'rinn); -1ta - o'rta guruh (4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar 30 o'rinn); -1ta - katta guruh (5 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar 30 o'rinn); -1ta - tayyorlov guruhi (6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar 30 o'rinn); -1 ta <p>O'yin xonalari, guruhlar va yotoq xonalari uchun xonalarda tabiiy yoki burchakli shamollatish ta'minlanishi kerak. Richagli framugalar (derazaning 50% dan ko'p bo'limgan) va shamollatgichlar har bir xonada bo'lishi va barcha fasllarda ishlatilishi kerak.</p> <p>Zallardagi polar совуқлик ўтказмайдиган (izolyatsiya qilingan va shpuntlangan yog'och) qoplamalar bilan qoplanishi kerak. Zallar bir biriga o'tuvchi bo'lmasligi lozim. Binolarning pollari va devorlari silliq bo'lishi va nam tozalashga bardoshli qoplama bilan qoplanishi yoki pardozlanishi kerak. Pardozlash ishlarida faqat ochiq tonlardagi ranglardan foydalanish Oshxona qismlari idish tovoq yuvish, bufet va kir yuvish, dazmollah xonalarining devorlari, 1,8 m balandlikda sirlangan plitkalar yoki bolalar salomatligi uchun zararsiz bo'lgan materiallar bilan qoplanishi kerak; yuvish va zararsizlantirish vositalaridan foydalangan holda hovuz hammomlari, dush xonalari va zallarning devorlari nam ishlov berish uchun qulay bo'lishi lozim.</p> <p>Guruhlardagi yuvinish va hojatxonalar devorlari 1,5 m balandlikda kafel bilan qoplanishi kerak.</p>
11	Obodonlashtirish va kichik me'moriy shakllarga qo'yiladigan talablar.	<p>Loyihalashtirishda quyidagilarni ko'zda tutish lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - kirish va ichki yo'llar betondan qoplamali; - piyodalar yo'lakchalari - betondan qoplamali; - o'yin maydonchalari, o't qoplamaridan tashqari, zichlangan tuproq asosida bolalarning sog'lig'i uchun zararsiz bo'lgan zamonaviy sintetik materiallar (sintetik gazon) bilan qoplanishi kerak. O'yin maydonchalaridagi inshootlarning qoplamasini suvgaga chidamli va oson tozalanishi lozim; <p>Cho'milish basseynlari 20-25 m² maydonga ega suv xavzasini, chuqurligi o'zgaruvchan kattalikdagi va chuqurligi o'zgaruvchan 0.1-0.5 m 0.4-0.6 m</p> <ul style="list-style-type: none"> - Tashqi bolalar ayvonchasi o'rindiqlari bilan

		ta'minlansin.
13	Konstruktiv yechimlarga, asosiy va to'suvchi konstruktsiyalar materiallariga qo'yiladigan asosiy talablar.	<p>1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti asosiy binosida isitish qozonlari, o't o'chirish anjomlari va nasos bilan ta'minlanishi lozim.</p> <p>Poydevor – lenta simon yoki yig'ma temir beton bloklar;</p> <p>Kompleks – quyma temir beton va g'ishtli yuk ko'taruvchi konstruktsiyalar bilan aralash tuzilishi lozim;</p> <p>Devorlar – pishgan g'ishtdan. Tashqi devorlar 380 mm va ustidan issiq savuqni ushslash uchun bazalt yoki penopleks qilinsin.</p> <p>Pollar- zal va guruh yotoqxonalarida kam suv o'tkazuvchan qoplamlarga ega bo'lishi lozim (issiq pol, parket, taxta). Sport zallarida relin (asosiy bino), oshxona, dush va sanuzellar, eskirmaydigan va sirpanmaydigan (matviy) kafel plitalaridan foydalanish zarur.</p> <p>Orayopmalar – dumaloq bo'shlqli temir beton plitalar;</p> <p>Tom qoplamasi – 0,51 mm qalinlikdagi yog'och karkasga o'rnatiladigan rangli tunukadan foydalanish lozim.</p> <p>Ichki to'suvchi devorlar (peregorodki) – 120 mm qalinlikda pishgan g'isht, gazoblok (penablok) yoki gipsokarton;</p> <p>Derazaga ikki qavatlari oyna o'rnatilgan plastik profildan tayyorlangan derazalar o'rnatiladi.</p> <p>Ichki eshiklar yog'och materiallardan yoki MDF dan ishlanishi lozim.</p> <p>Tashqi eshiklarning yuqori qismiga ayvoncha (kazerok) o'rnatilishi lozim.</p> <p>Bino sokolida beton plitkalardan foydalanish.</p>
14	Muhandislik va texnologik jihozlarga qo'yiladigan asosiy talablar, texnologik uskunalar ro'yhati va yetkazib beruvchining nomi.	<p>Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimi.</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududi va asosiy binosi shahar va qishloq punktlarini rejalashtirish va rivojlantirish bo'yicha gigiena talablariga va KMK 2.04.01-98 "Binolarning</p>

	<p>ichki suv ta'minoti va kanalizatsiyasi”, KMK 2.04.02-97 talablariga muvofiq ichimlik, o't o'chirish va issiq suv ta'minoti, oqova suv tizimi bilan ta'xminlanishi shart.</p> <p>Suv sifati amaldagi O'zDSt 950-2011 ichimlik suvi standartlariga muvofiq sanitariya talablariga javob berishi kerak.</p> <p>Sovuq va issiq suv ta'minoti tizimlari bilan oshxona, yuvinish, bolalar va xodimlar uchun xojatxonalar, kir yuvish xonalari, tibbiyot xonalari, qo'l yuvgichlar, xo'jalik ehtiyojlari uchun jixozlanishi lozim.</p> <p>Qo'l yuvgich va yuvinish xonalariga berilayotgan issiq suv harorati 37 °S oshmasligi lozim.</p> <p>Ovqatlanish blokiga berilayotgan issiq harorati 65 °S kam bo'lmasligi lozim.</p> <p>Sovuq va issiq suv quvurlari PVXdan amaldagi qoidalar talablariga muvofiq materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerak.</p> <p>Chiqindi suvlar oqimini kanalizatsiya tizimi orqali chiqindi suvlar uchun xandaklarga yoki mavjud markaziy kanalizatsiya tizimlariga tushishini ta'minlash kerak.</p> <p>Mavsumiy yog'ingarchilik suvlarini mavjud oqova suvlar tizimiga yo'naltirish xamda temir beton lotoklari orqali chiqarilishini ta'xminlash. QMQ 2.04.02-97</p> <p>Issiqliq ta'minoti, isitish va shamollatish tizimi.</p> <p>Avtomatlashtirilgan, gaz va qattiq yonilg'ida ishlaydigan, texnik xodimlarning doimiy ishtirokisiz ishlashga mo'ljallangan hamda bir-biridan alohida ishlaydigan qozonlar orqali issiqlik ta'minoti bilan ta'minlash.</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti xonalariga o'rnatilgan isitish moslamalarining tashqi harorati 70°S dan oshmasligi kerak.</p> <p>Xonalarning nisbiy namligi, isitish tizimini loyihalash harorati va binoga havo almashinushi oralig'i me'yoriy xujjalarga muvofiq qabul qilinishi kerak.</p> <p>Bino va xonalarni isitish va shamollatish tizimi KMK 2.04.05-91 “Isitish, shamollatish va havoni tozalash” me'yoriy xujjatiga muvofiq</p>
--	---

		<p>ishlab chiqilishi kerak.</p> <p>Isitish tizimini loyihalashda zamonaviy bimetallidan ishlangan radiatorlarni va sertifikatlangan plastik quvurlar ishlatalishini ko'zda tutish lozim. Isitish radiatorlari yog'och yoki MDF bilan qoplanishi shart.</p> <p>Guruh xonalarida havo sovutish va tozalash (konditsionirovanie) tizimi ko'zda tutish lozim.</p> <p>Elektr ta'minoti tizimi.</p> <p>Elektr tarmoqlariga ularish nuqtasini aniqlash. Shaxar va qishloq xududidagi MTT uchun elektroenergiyasi tarmoqdan uzilib qolgan taqdirda isitish tizimi sirkulyatsion nasoslari (dizel generatori) nazarda tutilishi lozim</p> <p>Elektr jixozlarni PUE talablari asosida jamoat binolari uchun elektr ta'minotini loyihalash bo'yicha ko'rsatmalarni va boshqa amaldagi me'yoriy xujjatlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish.</p> <p>Aloqa.</p> <p>Loyihada past kuchlanishli tarmoqlar va aloqa tarmoqlarini (televiedeniya, internet, videokuzatuv, yong'in xavfsizligi signalizatsiyasi) tortish shart.</p> <p>Maktabgacha ta'lif tashkiloti atrofi bo'ylab, ovqatlanish bo'limida, guruh xonalarida, soyali soyabonli bolalar guruhi o'yin maydonchalarida videokuzatuv uskunalarini o'rnatilishi shart.</p> <p>MTT binolari avtomatik yong'in xavfsizligi signalizatsiyalari bilan jixozlanishi xamda binoning evakuatsiya chiqish eshiklari oldiga avariya xolatida ishlovchi elektr ta'minotiga ulangan maxsus "ChIQISh", "ВЫХОД" xamda "EXIT" yozuvli ko'rsatkichlar inobatga olinishi shart.</p>
15	Loyihalash uchun buyurtmachi tomonidan berilgan dastlabki ma'lumotlarning tarkibi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. Tanlangan ob'ekt rekonstruktsiya bo'lsa texnik xulosa olinishi shart. 2. Arxitektura rejorashtirish topshirig'i (1 va 2 qism); 3. Muxandislik va geologik materiallar, topogeodezik xaritalar natijalari; Loyihalanayotgan ob'ektni muxandislik kommunikatsiya tarmoqlariga ularish uchun texnik shartlar: suv ta'minoti, gaz tarmoqlari, elektr tarmoqlari (bosh

		loyihachi tomonidan energiya talablarini hisoblab chiqqandan keyin).
16	Atrof muhitni muhofaza qilishga qo'yiladigan talablar.	Ob'ektning atrof muhitga ta'siri loyixasini tayyorlash (ZVOS) va ekologiya ekspertiza xulosasini olish loyihachi tomonidan ta'minlansin.
17	Smeta hujjatlarini tuzish uslubiga qo'yiladigan talablar.	Smeta xujjatlarini amaldagi me'yor va qoidalarga amal qilgan holda ishlab chiqish. Smeta xujjatlari narxlarni amaldagi tartibda xisoblansin (katalog asosida). Taqdim etiladigan smeta xujjatlari tarkibi quyidagilardan iborat: <ul style="list-style-type: none"> - Jamlangan resurs vedomosti; - Jamlangan resurs smeta.
18	Loyihalanayotgan ob'ekt tarkibi.	Loyihalanayotgan mактабгача та'lim tashkiloti hududida quyidagi bino va inshootlar ko'zda tutilsin: <ul style="list-style-type: none"> - asosiy bino; - 4 ta bolalar guruh o'yingohi tashqi bolalar ayvonchasi bilan birgalikda; - 1 ta jismoniy tarbiya maydonchasi; - 1 ta cho'milish havzasи; - nazorat punkti (mavjud) - Oziq-ovqat ombori – kelajakda nazarda tutilgan holda; - maishiy xizmat ko'rsatish maydoni (choyshablarni quritish, gilam va boshqa anjomlarni tozalash joylari bilan); - o't o'chirish uchun mo'ljallangan nasos (zarur bo'lganda); - suv ta'minoti uchun nasos zarur hollarda suv saqlash idishi bilan; - xonalarni ventilyatsiya tizimi bilan ta'minlash; - Tashqi eshiklar uchun soyabon o'rnatish (kazerok) - yong'inga qarshi zaxira suv hovuzi hajmi – hisob kitoblar asosida tanlansin; - oqava suvlar tushadigan xandak hajmi – hisob kitoblar asosida tanlansin; - transformator podstantsiyasi; - dizelgeneratori; - chiqindilar uchun maydonchasi; - old tomonidan ochiq to'siqlar (ajurnoe ograjdenie); - uch tomonidan yopiq devor to'siqlar; - tashqi xojatxona 2 ochko;

19	Loyiha-smeta xujjatlari bo'limlarining tarkibi.	<ol style="list-style-type: none"> 1. BR (bosh reja, shu jumladan obodonlashtirish); 2. AE (arxitektura yechimlari); 3. T/BK (temir-beton konstruktsiyalar); 4. MK (metall konstruktsiyalar); 5. AQ (arxitektura-qurilish yechimlari); 6. DMK (detallangan metall konstruktsiyalar); 7. IME (isitish qozonlari bo'yicha issiqlik mexanikasi yechimlari); 8. IT (isitish tizimi); 9. SK (suv ta'minoti va kanalizatsiya); 10. YoXS (yong'in xavfsizligi signalizatsiyasi); 11. PKAT (past kuchlanishli va aloqa tarmog'i); 12. TJ (texnologik jixozlar) 13. TST (tashqi suv ta'minoti tarmog'i); 14. TKT (tashqi kanalizatsiya tarmog'i); 15. ET (elektr ta'minoti); 16. AMMQT (atrof muxitni muxofaza qilish tadbirlari); 17. YoXT (yong'in xavfsizligi tadbirlari); 18. EET (energiya samaradorligi tadbirlari); 19. UT (umumiyl tushuntirishlar); 20. SM (smeta xujjatlari).
20	Qabul qilinadigan loyihaviy yechimlarga energiya samaradorligini ta'minlash talablari.	<p>Maktabgacha ta'lim tashkiloti inshootlarida energiyani samarali tejash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'zda tutish.</p> <p>Quyosh fotoelektr stantsialari va quyosh suv isitish qurilmalari bilan jixozlash, shuningdek binolar xamda inshootlarda yoritish tizimlari uchun svetodiotli manbalarni o'z ichiga olgan sensorli datchiklar, energiya samarador gaz-gorelkali qurilmalarni o'rnatilishini ta'minlash shart .</p>
21	Nogironlar va aholining kam harakatlanadigan guruhlarining yashash sharoitlarini ta'minlashga qo'yiladigan talablar	ShNQ 2.07.02-07 "Inson hayoti va faoliyati muhitining nogironlar ehtiyoji va aholining kamharakatlanuvchi guruhlarini hisobga olgan xolda loyihalash" talablarini rioya qilgan holda ishlab chiqilsin.
22	Yong'in xavfsizligi bo'limini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar.	Bo'limni amaldagi me'yor va qoidalarga muvofiq ishlab chiqish, shuningdek ShNK "Bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi" dan foydalangan holda.
23	Namoyish qilinadigan materiallarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar	Loyihani tasdiqlash uchun kerak bo'ladijan hajmda. Qo'shimcha, 3D prezентatsiya va namoyish uchun albom.
24	Qurilish muddati (yil)	2022 yil
25	Muhandislik tadqiqotlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar.	Muxandislik tadqiqot va izlanishlar «UzGAShKLITI» DUK tomonidan amalga oshirilgan (muxandislik geologiyasi, gidrogeologiya, topografik syomkalar va

		boshqalar)
26	Loyihalash va qurish uchun mahsus shartlar.	- Rekonstruksiya qilish (150 o'rinli MTT binosini rekonstruksiya qilish)
27	Qurilish ob'ektining murakkablik toifasi	II Toifa
28	Qo'shimcha talablar	Ishchi loyihalar 3 nusxada va elektron shaklda (PDF formatda) 3 ta diskgayozilgan tarzda taqdim etilishi kerak. Loyihani ekspertizadan o'tkazish uchun texnik kuzatuvni amalga oshirish va vakolatli tashkilotlar bilan loyihaning ayrim qismlarini tegishli tartibda kelishib olish.
29	Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish (POS)	Bo'limni amaldagi me'yoriy xujjalalar va qoidalarga asoslanib ishlab chiqish.
30	Qurilishda mualliflik nazorati	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 20 maydagi 321-son qaroriga asosan: Mualliflik nazorati olib borishga loyihachi tashkilot tomonidan shaharsozlik faoliyati sohasida maxsus ma'lumotga, kamida uch yillik ish tajribasiga ega bo'lgan va belgilangan tartibda sertifikatlangan mutaxassis (loyihachi) tayinlansin. Mualliflik nazorati bo'yicha mutaxassis: -Tasdiqlanadigan kalender rejalar, rejajadvallar yoki shu kabi boshqa hujjatlarda, ko'zda tutilgan muddatlarda, shuningdek, buyurtmachining chaqiruvi bilan o'zaro kelishilgan muddatlarda qurilish ob'ektiga tashrif buyuradi; -Mualliflik nazoratini olib borish uchun loyihachi tashkilot tomonidan mualliflik nazorati jurnali tayloranadi, har bir beti raqamlanadi, loyihachi tashkilot va buyurtmachining masul shaxslari tomonidan imzolanadi va muhrlanadi.
31	Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha talablar	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 28 noyabrdagi 961-sonli hamda 2018 yil 18 maydagi 370-sonli qarorlariga asosan Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlari yakunlangach, loyiha tashkilotlari: 1.Loyiha-smeta hujjatlarini arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiqligi bo'yicha ko'rib Qurilish bosh boshqarmasi kengashi bilan kelishish; 2.Vazirlar Mahkamasining «Markazlashtirilgan investisiyalar hisobdan moliyalashtiriladigan loyiha ishlari va investisiya loyihalarini takominlashtirish uchun qo'shimcha choralar haqida» 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga 2-ilovada (Murakkablik toifasi bo'yicha ob'ektlar

		<p>klassifikasiyasi) keltirilgan II toifalarga mansub ob'ektlarning loyiha-smeta xujjalari bevosita o'zлari sanitariya-epidemiologiya va ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari bilan kelishadilar;</p> <ul style="list-style-type: none"> - qurilish hajmi 300 kub metrdan ortiq bo'limgan ob'ektlarni bevosita o'zлari tuman (shahar) qurilish bo'limgani bilan kelishadilar; <p>Loyiha-smeta hujjalari bilan kelishish jarayoni bilan bir vaqtida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ularish bo'yicha loyiha hujjalari bilan kelishish:</p> <ol style="list-style-type: none"> a) Elektr tarmoqlariga ulashda — O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi; b) gaz tarmoqlariga ulashda — hududiy gaz ta'minoti korxonasi; c) iste'molchilar issiqlik ta'minoti tarmoqlariga ularishda — issiqlik ta'minoti korxonasi; d) suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulashda — suv quvurlari va kanalizatsiya xo'jaligi tashkiloti tomonidan amalga oshirildi. <p>Loyiha tashkiloti o'zining xohishiga ko'ra loyiha hujjalaring arxitektera qismini oldin kelishib, keyin loyiha hujjalaring boshqa qismlarini ishlab chiqishi va kelishishi hamda ekspertizadan o'tkazishi mumkin.</p>
32	Jihozlash.	<p>Gilam, televizor, parda (jalyuzi), elektro plita, muzlatgich, kir yuvish mashinasi, konditsioner, , xavo tortish moslamasi, suv isitgich (ariston). ((GOST 28415), (UzTR.389-010:2016,GOST IEC 60065), (GOST 33125), (UzTR.389-010:2016, GOST MEK 60335-1 GOST 27570.34-92 SanPiN RUz № 0348-17), (UzTR.389-010:2016 GOST MEK 60335-1 GOST 16317 GOST 26678 SanPiN RUz № 0348-17) (UzTR.389-010:2016 GOST MEK 60335-1) (UzTR.389-010:2016 GOST 26963)</p>

Qashqadaryo viloyat hokimligi

yagona buyurtmachi xizmati injiniring

kompaniyasi loyiha bo'lim boshlig'i

T. Turayev

